



Bilasizmi?

O'quvchilarni dars mashg'ulotlaridan sababsiz chiqarib yuborish yoki kiritmaslik mumkin emas

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023 yil 31 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 282-sonli buyrug'ida mazkur me'yorlar belgilangan

jamo'a a'zolari va boshqalarning shaxsiyatini, qadr-qimmatini kamsitish, ruhiy, jismoniy va boshqa zo'ravonlik ko'rsatish;

o'quvchilarni dars mashg'ulotlaridan sababsiz chiqarib yuborish yoki kiritmaslik;

"Chiqish" qo'ng'irog'i chalingandan keyin o'quvchilarni sababsiz sinf xonasida ushlab turish;

dars mashg'ulotlarida diniy tashviqot olib borish;

ta'lim muassasasiga spirtli ichimliklar iste'mol qilgan holda kelish;

ta'lim muassasasining hududi va binosida spirtli ichimliklar hamda tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish;

muassasa hududi va binosida o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga aloqasi bo'lmagan turli xil tadbirlarni tashkil etish;

ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan barcha tadbirlar va ularga tayyorgarlik ishlarini dars mashg'ulotlari vaqtida o'tkazish.

O'ktamjon Ergashev - So'x tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-25 17:12:46